

## Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)  
(2019-yil 1-iyul holatiga)

2019-yilning yanvar-iyun oylarida Viloyatda 1584 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 786 taga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1769 ta (17,8 %) ga o'sgan hamda ularning umumiyligi soni 11722 tani tashkil etgan.

**Ro'yxatdan o'tganlar  
12510 ta**

**Faoliyat ko'rsatayotganlar  
11722 ta**

**Yangi tashkil etilganlar  
1584 ta**

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes  
sub'ektlari soni 9626 ta bo'lib,  
yil davomida 1524 ta yangi tashkil  
etildi.**

**Xorijiy sarmoya ishtirokidagi  
129 ta korxonalar faoliyat  
ko'rsatmoqda.**



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnidagi tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichmabosqich ishlab chiqilib, amaliyatga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar  
va tashkilotlar soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**


	Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1528	1365	192
	Sanoat	1656	1568	340
	Qurilish	1174	1110	186
	Savdo	3367	3146	519
	Tashish va saqlash	613	566	23
	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	795	746	162
	Axborot va aloqa	174	164	15
	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	137	136	8
	Boshqa turlari	3066	2921	139



**Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)  
(2019-yil 1-iyul holatiga)

2019-yilning 1-iyul holatiga 12510 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 26,9 % savdo, 13,2 % sanoat, 9,4 % qurilish, 12,2 % Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,9 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 1,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 24,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan  
korxona va tashkilotlar soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (3852 ta), Sirdaryo (1973 ta), Sayhunobod (1025 ta) va Boyovut (955 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (282 ta), Sardoba (508 ta) hamda Oqoltin (531 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Ro'yxatdan o'tgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda.  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**






## Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar. (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 11722 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1769 ta (17,8 %) ga o'sgan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soniga nisbatan 26,8 % savdo, 13,4 % sanoat, 9,5 % qurilish, 11,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,8 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 1,2 % sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 24,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (3612 ta), Sirdaryo (1798 ta), Sayhunobod (987 ta), Boyovut (922 ta) va Guliston (878 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (257 ta), Sardoba (490 ta) hamda Xovos (582 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxona  
va tashkilotlar soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar  
kesimida soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

| 01.07.2017 y. |

- 9252 ta

| 01.07.2018 y. |

- 9953 ta

| 01.07.2019 y. |


- 11722 ta



## Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar. (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-iyun oylarida 1584 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 98,5 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar Guliston shahri (410 ta), Sirdaryo (261 ta) va Boyovut (138 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (29 ta) hamda Xovos (80 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (519 ta), sanoat (340 ta), qurilish (186 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (162 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (8 ta), axborot va aloqa (15 ta) hamda tashish va saqlash (23 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

	01.07.2017 y.		01.07.2018 y.		01.07.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>807</b>	<b>100,0</b>	<b>798</b>	<b>100,0</b>	<b>1584</b>	<b>100,0</b>
Savdo	189	23,4	193	24,2	519	32,8
Sanoat	153	19,0	119	14,9	340	21,5
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	166	20,6	134	16,8	192	12,1
Qurilish	79	9,8	124	15,5	186	11,7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	71	8,8	58	7,3	162	10,2
Tashish va saqlash	53	6,6	22	2,8	23	1,5
Axborot va aloqa	13	1,6	10	1,3	15	0,9
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	4	0,5	9	1,1	8	0,5
Boshqa turlari	79	9,7	129	16,1	139	8,8

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar  
kesimida soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

01.07.2017 y.  
807

01.07.2018 y.  
798


01.07.2019 y.  
1584



## TIJORAT KORXONALARI.

2019-yil 1-iyul holatiga 9673 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 2847 ta, oilaviy korxonalar – 147 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 6371 ta va boshqalar 308 tani tashkil etgan.

### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar. (2019- yil 1-iyul holatiga)

2019-yil 1-iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 129 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 32 taga yoki 33,0 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.


## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda



## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Sirdaryo tumani (52 ta yoki jamidagi ulushi 40,3 %), Guliston shahri (29 ta yoki 22,5 %) va Yangiyer shahri (15 ta yoki 11,6 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Xovos tumani (2 ta yoki 1,6 %) va Guliston tumani (1 ta yoki 0,8 %) hissalariga tog'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 88 tani (68,2 %), savdoda 18 tani (14,0 %) hamda boshqa tarmoqlarda 5 tani (3,9 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa tashish va saqlashda 5 tani (3,9 %), Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida esa 4 tani (3,1 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 tani (0,8 %), axborot va aloqa 1 tani (0,8 %), tashkil qilgan. Ko'rinish turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019-yilning yanvar-iyun oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 26 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 2 ta, Qozog'iston Respublikasi – 5 ta, Turkiya Respublikasi – 3 ta, Xitoy Xalq Respublikasi -8 ta, Tojikiston -2 ta, hamda -6 tasi boshqa davlatlar hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, 2019-yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining  
davlatlar kesimidagi ulushi, %  
(2019-yilning yanvar-iyun oylarida)**



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (14 ta), savdo (8 ta), qurilish (2 ta), axborot va aloqa (1 ta) va Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (1 ta) hissasiga to'gri keladi


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
soni, o'sish dinamikasi**

	2018-yil yanvar-iyun		2019-yil yanvar-iyun	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
<b>Jami</b>	<b>13</b>	<b>100,0</b>	<b>26</b>	<b>100,0</b>
<b>Sanoat</b>	10	76,9	14	53,9
<b>Savdo</b>	-	-	8	30,8
<b>Qurilish</b>	1	7,7	2	7,7
<b>Axborat va aloqa</b>	-	-	1	3,8
<b>Tashish va saqlash</b>	1	7,7	-	-
<b>Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi</b>	1	7,7	1	3,8



**Kichik korxona va mikrofirmalar soni.**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*  
*(2019- yil 1-iyul holatiga)*


2019-yil 1-iyul holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 9626 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1- iyul holatiga qaraganda 20,8 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, yani 3116 tasi (32,4 %) Guliston shahri, 1539 tasi (16,0 %) Sirdaryo, 815 tasi (8,5 %) Sayhunobod hamda 717 tasi (7,4 %) Guliston tumani hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 9626 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3136 tasi (32,6 %) – savdo, 1546 tasi (16,1 %) - sanoat, 1105 tasi (11,5 %) - qurilish, 1347 tasi (14,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 744 tasi (7,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 563 tasi (5,8 %) - tashish va saqlash, 157 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasi, 90 tasi (0,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 938 tasi (9,8 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.


Shundan ko'rrib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



2019-yil yanvar-iyun oylarida 1524 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 108,8 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Guliston shahri (387 ta), Sirdaryo (257 ta), Mirzaobod (116 ta) va Boyovut ( 130ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Shirin shahri (26 ta), Oqoltin (85 ta) hamda Xovos (78 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (519 ta), sanoatda (340 ta), qurilishda (186 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (192 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (162 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (8 ta), axborot va aloqada (15 ta) hamda tashish va saqlashda (23 ta) tashkil etilgan.

## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2019-yilning 1-iyul holatiga 156 tani tashkil etib, ulardan 147 tasi yoki 94,2 % faoliyat yuritadi. Bu ko`rsatkich o`tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yhatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko`rsatayotganlarning umumiy soni o`rtacha 42,9 % ga oshganligini ta`kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



**Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari** kesimida qaralganda ularning 46,9 % yoki 69 tasi sanoat, 16,3 % yoki 24 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 15,6 % yoki 23 tasi savdo, 13,6 % yoki 20 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,4 % yoki 2 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 1 tasi axborot va aloqa hamda 5,5 % yoki 8 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

### Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa Axborot va aloqa, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

**Sirdaryo viloyati statistika  
boshqarmasi Statistik registrlarni  
yuritish bo'limi Tel.:67-225-31-00**